

Uzbekistan Airways chegirmalari davom etadi

2023 7 Iyun

“Yorqin payshanba” aksiyasi doirasida aviachiptalarni 20% chegirma bilan xarid qiling va eng mashhur marshrutlarga qulay narxlarda parvoz qiling!

2023-yilning 8-iyun kuni Uzbekistan Airways aviakompaniyasi “Yorqin Payshanba” aksiyasi doirasida Toshkentdan\ga Pekin, Urumchi, Frankfurt, Dubay, Sharjaga, shuningdek Farg'onadan\ga Dubayga va ortga qaytuvchi yo'nalishlar aviachiptalari tarifdan 20% chegirma e'lon qiladi.

Uzbekistan Airways “Yorqin payshanba” aksiyasining bat afsil shartlari:

1. Aksiya muddati 2023-yil 8-iyun soat 00:00 dan 23:59 gacha;
2. Taqdim etiladigan chegirma miqdori:
 - kattalar uchun tarifdan – 20%;
 - 2 yoshgacha va 2 yoshdan 12 yoshgacha bo'lgan salonda joy egallovchi bolalar uchun – bolalar tarifiiga mos ravishda – 20%;
 - chegirma salonda joy egallamaydigan va 2 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun amal qilmaydi;
3. Aviachipta qaytarilganda/qayta bronlashtirilganda/qayta rasmiylashtirilganda tarifga taqdim etilgan chegirma aviachiptani qaytarish/qayta bronlashtirish/NO-SHOW uchun undiriladigan yig'implarga nisbatan qo'llanilmaydi. Bolalar uchun belgilangan tartibda (25% chegirma bilan) undiriladi;
4. Ilgari sotib olingan aviachiptalar 08.06.2023da qayta rasmiylashtirilsa yoki qayta bron qilinsa, tarifga chegirma qo'llanilmaydi;
5. Aviachiptalarni chegirma bilan aviakompaniyaning veb-saytida “Uzbekistan Airways Sales” filiali va uning agentlarida, shuningdek, xorijdagi vakolatxonalarimizda fuqaroligidan qat'iy nazar xarid qilish mumkin. Chegirma CODE SHARE reyslarida uchun qo'llanilmaydi;
6. Aviatashuv muddati cheklanmagan (aviatashuvning amal qilish muddati qo'llanilgan tarif qoidalari bilan belgilanadi, aviachiptalarni e'lon qilingan berilgan jadval asosida rasmiylashtirishga ruxsat beriladi);

7. Chegirmalarni birlashtirish taqiqlanadi;
8. Chegirma e'lon qilingan barcha individual ekonom va biznes-klass tariflari uchun faqat Toshkentdan\ga Pekin, Urumchi, Frankfurt, Dubay, Sharjaga, shuningdek Farg'onadan\ga Dubayga va orqaga to'g'ridan-to'g'ri yo'nalishlar uchun taqdim etiladi..

"Yorqin payshanba" aksiyasi doirasida aviachiptalarni aviakompaniyaning rasmiy www.uzairways.com sayti, UzAirways ilovasi orqali, shuningdek, Uzbekistan Airways Sales filialida yoki aviakompaniya agentlaridan xarid qilish mumkin.